

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG LIRIK QAHRAMONI VA ZAMONAVIY BADIY TAFAKKUR

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009)-XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutgan rusiyzabon shoir,yozuvchi,dramaturg va tarjimon.Uning o'ziga xos ijodiy yo'li o'zbek adabiy maktabini boyitgan,uni jahon sahnasiga olib chiqqan.Faynberg lirikasi inson ruhiy olamining chuqur qatlamlarini,zamon,xotira,ezgulik,muhabbat va haqiqatga intilish kabi mavzularni falsafiy mulohazalar orqali ochib beradi.Uning she'rlaridagi lirik qahramon zamonaviy inson bo'lib,bu qahramon o'zini izlaydi,vaqt,xotira va umid oralig'ida hayot kechiradi va bu o'zgaras tushunchalar haqida muhohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: ichki monolog,falsafiy mushohada,«Men-Toshkentman»,«Aprelgacha alvido»,sevgi,umid.

Aleksandr Arkadevich Faynberg she'rlarida lirik qahramon bu o'sha davrda yashagan oddiy inson bo'lsa-da,bu inson o'zining ichki kechinmalari,o'ylari,fikrlari,falsafiy nuqtai nazari bilan murakkab shaxsga aylangan.Shoirning «Mening bolaligimning ko'chalari» asarini o'qir ekanmiz,o'tmishini eslayotgan qahramon o'sha beg'uborlik,samimiyatga qaytishni juda xohlayotganini sezamiz:

«Bolalik-yurakning so'nmas chirog'i,

Unga qaytmoq-hayotning eng pok orzusi.»

Mana shu ikki qator she'r shoir lirik qahramoning bolalarcha sof,samimiy qalbini,oddiy quvonchni qanchalar qadrlashini ko'rsatadi.

Faynberg asarlarida zamon va inson o'rtasidagi ziddiyatli kurash asosiy mavzulardan biridir.Masalan «Ko'k osmon ostida»asarida ijodkor zamonamizga xos befarqlik,texnologiyalarga qaramlik hamda ruhiy sovuqlikka qarshi insoniy iliqlikni baralla kuylaylaydi,o'quvchilarni ogohlikka chorlaydi.

«Ko'k osmon ostida yuraklar sovuq,

Ammo umid hali so'nmagan...»

Bu misralarda insoniy umidni,ruhiy kuchni yo'qotmaslik haqida so'z boradi.Faynberg uchun inson zamon to'zonlarida kuchli tura oladigan kuchdir.

Zamonaviy adabiy tafakkurda inson faqatgina tashqi muammolar bilan emas,balki ichki dunyoda kechayotgan tuyg'ular bilan ham qiziq boshlaydi.Lirik

qahramon insonlar uni tushunishini juda xohlaydi.”Yomg’ir tovushlari” she’rida inson tabiat tovushlari vositasida o’z ichki ovozi eshitadi.Yomg’ir tozalanish,yangilanish ramzi sifatida keltiriladi.

“Yomg’ir yog’adi,yuragim jim,
Go’yo osmon bilan so’zlashaman men...”

Shoir ko’p she’rlarida insonni zamon bilan bir butun tarzda tasvirlaydi.U hayotdagi o’zgarishlar-u vaqt oqimini sezadi.

“Men-Toshkentman,sening shamollaring,sening orzularing bilan yashayman.”Bu satrdan shoir inson va shahar,shaxs va jamiyat orasidagi yaqinlikni qanday tasvirlashini ko’ramiz.

Faynberg she’rlari obrazlarga,ramzlarga boyligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.”Aprelgacha,alvido” she’rida ijodkor ayriliq,vaqt,sevgi tushunchalarini bir-biriga bog’lab o’ziga xos ifoda yaratadi.

“Aprelgacha,alvido,
Ochilgan qo’llaring- visol’
Qor uchqunlari uchib ketadi
Sevgining kaftidan.”

Bu satrlarda “qor”, “aprel”, “qo’l” so’zlari ramz sifatida ishlatilgan.Ular sevgining nozik,o’tkinchi,biroq iliq taftini ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Faynberg A.A Tanlangan asarlar.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1985.
2. Faynberg A.A Mening bolaligimning ko’chalari.-Toshkent: Sharq,1999.
3. Karimov N. XX asr o’zbek she’riyati taraqqiyoti.- Toshkent: Fan,2003.
4. Qosimov B. Adabiyotshunoslik asoslari.- Toshkent: O’qituvchi,2002.
5. Ziyouz.com- AleksandFaynberg she’rlari to’plami.